

“SALOMATLIK” POYEZDINING AHOLI SALOMATLIGIDA TUTGAN O’RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10464202>

Shahobiddin Daripov

*CAMU-xalqaro tibbiyat universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

Fayzullo Qodirov

*CAMU-xalqaro tibbiyat universiteti
Tibbiy ekologiya fani o’qituvchisi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada asosan O’zbekiston Respublikasida sog’lijni saqlash sohasida olib borilayotgan islohatlarning rivojlanishida “Salomatlik” poezlarining o’rni haqida so’z boradi. Ayniqsa, bugungi kunda tibbiyat sohasini o’sishida bu soha vakillarining alohida o’rni borligi ta’kidlangan.

Kalit so’zlar

O’zbekiston temir yo’llari, sog’lom avlod, qishloq vrachlik punktlari, poyezdlar xavfsizligi, bepul tibbiy xizmat, tibbiy muammolar, markaziy poliklinika, bolalar shifoxonasi, tibbiy-ko’rik, “Salomatlik” poyezdi.

Аннотация

В данной статье преимущественно говорится о роли стихотворений «Здоровье» в развитии реформы здравоохранения в Республике Узбекистан. Было отмечено, что представителям этой области сегодня принадлежит особая роль в развитии медицинской сферы.

Ключевые слова

Железные дороги Узбекистана, здоровое поколение, сельские врачебные пункты, безопасность поездов, бесплатное медицинское обслуживание, проблемы медицины, центральная поликлиника, детская больница, медицинский осмотр, поезд «Здоровье».

Annotation

This article mainly talks about the role of "Health" poems in the development of health care reforms in the Republic of Uzbekistan. It was noted that the representatives of this field have a special role in the growth of the medical field today.

Key words

Railways of Uzbekistan, healthy generation, rural medical centers, train safety, free medical service, medical problems, central polyclinic, children's hospital, medical examination, "Health" train .

Mamlakatimizda aholi salomatligi, ayniqsa, sog'lom avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazish borasida amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar tahsinga loyiq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi PQ-215-son qaroriga asosan yurtimizning olis chekka qishloq, tumanlarida ham qishloq vrachlik punktlari, tibbiyot muassasalari barpo etilib, mavjudlari qayta ta'mirlanib, zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlanayotgani, mutaxassis shifokorlarning malakasini oshirishda zamon talablari darajasida yondashilayotgani el salomatligiga kamarbasta, g'amxo'r hukumatimizning yuksak e'tibori, olib borilayotgan ko'lami keng islohotlarning samarasidir. Bu borada O'zbekiston temir yo'llarida ham talaygina ishlar amalga oshirilib, kamchiliklar bartaraf etilmoqda.

O'zbekistan temir yo'llari o'zining sog'liqni saqlash tizimiga ega bo'lib, mamlakatning turli burchaklarini qamrab olgan po'lat magistral xodimlariga tibbiy xizmat ko'rsatish, poyezdlar xavfsizligini tibbiy jihatdan ta'minlash borasida bir asrlikdan ziyod tarixga va boy an'analarga ega tarmoq hisoblanadi.

"O'zbekiston temir yo'llari" DAK bilan hamkorlikda yurtimizning ekologik jihatdan noqulay, chekka hududlariga yo'naltirilgan "Salomatlik" poyezdi bilan bog'liq tadbirlarning muntazam tashkil etilayotgani, aholining insonparvarlik yordamlari, bepul tibbiy xizmat bilan qamrab olinayotgani xayrli ishlar samarasining nechog'li yuksak ekanidan dalolatdir.

O'zbekistan temir yo'llarining sog'liqni saqlash sohasi 100 yildan ziyod tarixga ega. Temir yo'llar qurilishi bilan birga tibbiy muammolar ham hal etilgan.

"O'zbekistan temir yo'llari" Davlat-aksiyadorlik temiryo'l kompaniyasining tuzilishi bilan temir yo'l sog'liqni saqlash tizimi bosqichma-bosqich qayta tashkil etila boshlandi.

Toshkentda markaziy klinik shifoxona, markaziy polikli-nika, bolalar shifoxonasi, «Salomatlik» tibbiy-sanitariya yordami poyezdi, temiryo'l qon quyish stansiyasi, san-epidstansiya, Xovos, Qo'qon, Andijon, Samarqand, Buxoro, Qarshi, Termiz, Urganch, Xo'jayli stansiyalarida birlashgan shifoxonalar faoliyat olib boradi. Har bir shifoxonaning o'z stasionar va poliklinika bo'limlari mavjud.

2003-yilda tashkil etilgan "Salomatlik" poyezdi olis hududlardagi stansiyalarning temiryo'lchilariga yordam ko'rsatadi. Poyezd jadval bo'yicha, shifokorlik xizmati buyrug'i bilan shoshilinch ravishda yo'lga chiqadi.

Yil boshidan buyon "Salomatlik" tibbiy-sanitariya poyezdining shifokorlari uzlusiz ravishda safarlarda bo'lib, 33817 nafar aholiga beminnat yordam ko'rsatishdi. Qoraqalpog'istonning Jasliq, Buzauboy, Miskin, To'rtko'l hududlarida, Buxoro zaminining Uchquduq, Konimex, Tinchlik, Qizilquduq va

Kara-Kata liniyasida yashovchi temiryo'lchilar va oila a'zolari, qariya va nogironlar, yosh bolalar tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, davolanishga muhtojlari poytaxtga keltirildi.

"Sog'lom ona va bola yili" Davlat dasturi doirasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. "Salomatlik" tibbiy-sanitariya poyezdi orqali sayyor tibbiy ko'rik tashkil etilib, Respublikamizning tabiiy iqlim sharoiti og'ir bo'lgan chekka hududlarida yashovchi 1075 nafar pensioner, 164 nafar nogiron, 2554 nafar xotin - qiz va 1600 nafar bola, jami 9966 nafar aholi tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda bir yilning o'zida 3646 shaxsga 21655 marta maslahat berildi, ya'ni o'rtacha har bir odam 5,9 marta turli iqtisosdagi shifokorlar ko'riganidan o'tdi. Bundan tashqari, 1508 marta flyuorografiya suratga tushirildi, 2110 marta laboratoriya tahlili o'tkazildi, 290 marta elektrokardiogramma qo'yildi.

2000-yildan chekka va ekologik jihatdan noqulay hududlariga 19 marotaba "Salomatlik" poyezdining safari uyushtirildi. Mazkur tadbirdilar doirasida aholi "O'zbekiston temir yo'llari" davlat aksionerlik kompaniyasining "Salomatlik poyezdi" tibbiy-ijtimoiy patronaj birgadasi shifokorlari tomonidan chuqurlashtirilgan tibbiy-ko'rikdan o'tkazildi.

Bugunga qadar poyezd faoliyati davomida 62 248 nafar aholi tibbiy ko'rik bilan qamrab olingan.

"Salomatlik" poyezdi mutaxassislarining o'z oldilaridagi muhim vazifalaridan biri tibbiy-ko'rik bilan bir davrda aholi orasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish borasida ham keng tushuntirish ishlarini olib borish, sog'lomlashtirilishi zarur bo'lgan fuqarolarga davolanish muassasalariga yo'llanmalar berish hamda safarlar davomida ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, nogironlar va yolg'iz keksalar holidan xabar olinib, muruvvat yordamlari manzilli yetkazib berishdan iboratdir. Kelgusida "Salomatlik" poyezdlari tibbiyot sohasini yanada rivojlanishida tibbiyot oliygohlarining o'rni beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 25-apreldagi PQ-215-son qarori.
2. O'zbekiston temir yo'llari maxsus jurnali. Toshkent, 2003.
3. O'zbekiston temiryo'lchilari va transport quruvchilari kasaba uyushmasi maxsus jurnali. Toshkent, 2009.
- 4.O'zbekiston temiryo'lchilari va transport quruvchilari kasaba uyushmasi maxsus jurnali. Toshkent, 2015.

5. "Sog'lom avlod" gazetasi. № 16-son. 23.04.2013.
6. "Temir yo'lchi" gazetasi. № 45-son 08.11.2007.
7. "Temir yo'lchi" gazetasi. № 3-son 19.01.2017.
8. www.uzrailway.uz